


# Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi

ilmiy-nazariy va  
metodik jurnal



ISSN:  
**2992-8796**

**N° 1**

**2025**  
**yanvar**

Bulletin of Urgench state  
pedagogical institute scientific-  
theoretical and methodical journal

@UrDPI\_jurnal

# URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROTNOMASI

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

## 1/2025

### Bosh muharrir:

**Mdraximova Feruza Ruzimbayevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Abdullayev Diyorjon Nodirjon o'g'li**  
tarix fanlari doktori, dotsent

### Tahrir hay'ati a'zolari:

**X.Ibragimov** – akademik  
**Ye.I.Pivovar** – akademik (Rossiya)  
**A.Sadullayev** – akademik  
**Orhun Uzun** – f.m.f.d., professor (Turkiya)  
**X.Bekchanov** – b.f.d., professor  
**Li Tsi** – p.f.d., professor (Xitoy)  
**B.Abdullayeva** – p.f.d., professor  
**E.Ruziyev** – p.f.d., professor  
**O.Xaitov** – p.f.d., professor  
**A.Lubkov** – t.f.d. professor (Rossiya)  
**E.Nuriddinov** – t.f.d. professor  
**J.Ismailova** – t.f.d. professor  
**N.Mamatov** – f.f.d., professor  
**M.Qahharova** – f.f.d., professor  
**J.Yusubov** – f.f.d., dotsent  
**O'Matnazarov** – p.f.n., professor  
**U.Sheripov** – t.f.n., dotsent  
**M.Sobirova** – f.f.n., dotsent  
**G.Eshchanova** – f.f.n., dotsent  
**A.Atajonova** – f.f.n., dotsent  
**N.Masharipova** – f.f.n., dotsent  
**D.Xajiyeva** – f.f.n., dotsent  
**J.Xujamov** – f.m.f.n., dotsent  
**Sh.Xudayberganov** – PhD, dotsent  
**D.Nafasov** – PhD, dotsent  
**J.Yusubov** – PhD, dotsent  
**T.Absalamov** – PhD, dotsent  
**H.Matyoqubov** – PhD, dotsent  
**U.Xo'jamuratov** – PhD, dotsent  
**E.Nabiyev** – PhD, dotsent  
**A.Madaminov** – PhD, dotsent

Muassis – Urganch davlat pedagogika instituti.  
Jurnalda pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa fanlarini o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2023-yil 17-fevraldagi 064130-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston ISSN Milliy markazi tomonidan 2024-yil 5-yanvardan Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar ISSN: 2992-8796 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2024-yil 27-sentyabrdagi 361-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

# BULLETIN OF URGENCH STATE

## PEDAGOGICAL INSTITUTE

scientific-theoretical and methodical journal

# 1/2025

### Chief Editor:

**Madrakhimova Feruza Ruzimbayevna**  
Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Prof.

### Deputy Chief Editor:

**Abdullayev Diyorjon Nodirjon oqli**  
Doctor of Historical Sciences, Associate Professor

### Editorial board:

<b>Kh.Ibragimov</b>	– academician
<b>Ye.I.Pivovar</b>	– academician (Russia)
<b>A.Sadullayev</b>	– academician
<b>Orhun Uzun</b>	– professor (Turkey)
<b>Kh.Bekchanov</b>	– professor
<b>Li Tsi</b>	– professor (China)
<b>B.Abdullayeva</b>	– professor
<b>E.Ruziyev</b>	– professor
<b>O.Khaitov</b>	– professor
<b>A.Lubkov</b>	– professor (Russia)
<b>E.Nuriddinov</b>	– professor
<b>J.Ismailova</b>	– professor
<b>N.Mamatov</b>	– professor
<b>M.Qahharova</b>	– professor
<b>J.Yusubov</b>	– associate professor
<b>U.Matnazarov</b>	– professor
<b>U.Sheripov</b>	– associate professor
<b>M.Sobirova</b>	– associate professor
<b>G.Eshchanova</b>	– associate professor
<b>A.Atajonova</b>	– associate professor
<b>N.Masharipova</b>	– associate professor
<b>D.Khajiyyeva</b>	– associate professor
<b>J.Khujamov</b>	– associate professor
<b>Sh.Khudayberganov</b>	– PhD, associate professor
<b>D.Nafasov</b>	– PhD, associate professor
<b>J.Yusubov</b>	– PhD, associate professor
<b>T.Absalamov</b>	– PhD, associate professor
<b>H.Matyoqubov</b>	– PhD, associate professor
<b>U.Khujamuratov</b>	– PhD, associate professor
<b>E.Nabiyev</b>	– PhD, associate professor
<b>A.Madaminov</b>	– PhD, associate professor

The Founder – Urgench State Pedagogical Institute. The journal publishes scientific-theoretical, scientific-methodical articles on methods and technologies of teaching pedagogy, psychology, history, philosophy in Uzbek, Russian and English.

The journal received a “Certificate of State Registration of a Mass Media” No. 064130 dated February 17, 2023 from the Tashkent City Press and Information Department, and was assigned the International Standards of Periodicals ISSN: 2992-8796 number by the ISSN National Center of Uzbekistan from January 5, 2024.

Registered by the Resolution of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan No. 361 dated September 27, 2024.

## TALABANING MUSTAQIL ISHINI TIZIMLI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH USLUBI SIFATIDA

Yusupov Davronbek Firnafasovich

Urganch innavasion universiteti Ta'lim sifatni nazorat qilish departamenti boshlig'i,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

**Annotasiya.** Maqolada zamonaviy o'qitish tendensiyasida juda katta e'tibor qaratilayotgan dolzarb muammolardan hisoblangan talabning mustaqil ishlarini tashkil qilish, samaradorligini, mahsuldorligini, ilmiy amaliy salohiyatini va shu kabi boshqa omillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur metodika talabalarda tashabbuskorlik, oldindan ko'ra bilish, o'zini-o'zi baholash, o'zini-o'zi nazorat qilish, ijodiy yondashish kabi mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirishni ta'minlovchi ko'nikmalarini yanada takomillashiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayonini jadallashtirish, tizimlilik, fan tarkibini mantiqiy strukturalash, samaradorlik, mustakil ta'lim, modullik, kompyuterli o'qitish texnologiyasi.

## СИСТЕМНОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** Статья направлена на дальнейшее совершенствование организации самостоятельной работы студентов, эффективности, результативности, научно-практического потенциала и других подобных факторов, которые считаются одной из актуальных проблем в тенденции современного образования. Данная методика помогает студентам в дальнейшем совершенствовать свои навыки, обеспечивающие развитие самостоятельной работы, такие как инициативность, предусмотрительность, самооценка, самоконтроль, творческий подход.

**Ключевые слова:** ускорение учебного процесса, системность, логическое структурирование содержания предмета, эффективность, самостоятельное обучение, модульность, компьютерная технология обучения.

## SYSTEMIC PLANNING AND ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT WORK AS A WAY TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

**Abstract.** The article is aimed at further improving the organization of students' independent work, efficiency, productivity, scientific and practical potential, and other such factors, which are considered to be urgent problems in modern teaching trends. This methodology helps students to further improve their skills that ensure the development of independent work, such as initiative, foresight, self-assessment, self-control, and creative approach.

**Key words:** acceleration of the educational process, systematicity, logical structuring of subject content, efficiency, independent education, modularity, computer teaching technology.

**KIRISH.** Bugungi kunda dunyoning eng ilg'or mamlakatlari bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etish oliy ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etishning samarali yo'llaridan biri – talabning kasbiy faoliyati bo'yicha fanlarni o'zlashtirish jarayonida talabning mustaqil ishini samarali rejalashtirish va tashkil qilish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, qator oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlashga o‘tkazish, ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, davlat-hususi sherikchilik mexanizmlarini ta’lim sohasiga ham keng tadbir etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari ekanligi ta’kidlab o‘tilgan [1]. Bunga ko‘ra mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarining barchasi 2030 yilgacha boqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida asosan YeSTS kredit-modul tizimi joriy etilmoqda.

Talabaning mustaqil ishini kasbiy faoliyat fanlari bo‘yicha tashkil etishda, eng avvalo, oddiy bir narsaga ahamiyat berish lozim. Bunday qaraganda buni hamma biladi, lekin ko‘pchilik unga amal qilmaydi. Shuning uchun mustaqil ishni tashkil etishning oddiy elementar prinsiplarini o‘zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to‘laligicha qamrab oladi [2,3].

Har bir talaba o‘zining fanlar kesimida mustaqil ishini tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Qanday maqsad qo‘yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalaniladi? – kabi masalalar yechimini aniq ko‘z oldiga keltira olishi kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani bu ish tashkil etildi degani emas.

Zero, mustaqil ishni har bir talabaning o‘zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabadan sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo‘rqmay o‘z ustida ishlash talab etiladi. Shu bois ham bu ishga ongli ravishda yondashish, o‘zining mustaqil ishini oqilona rejalashtirish va amalga oshirish, bu zamon talabiga mos raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishning muhim sharti ekanligini anglash muhimdir.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etganda quydagi masalalarga e’tibor berish kerak [2-5]:

Birinchi, mustaqil ishning mavzularini aniqlanganda, o‘qiladigan fanining, masalan, Ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish fanida, har bir mavzusi bo‘yicha, eng muhim bo‘lgan masala yuzasidan muammoni aniqlab, u muammoni hal qilishga qaratilgan adabiyotni yoki asarni olib, uni konspekt, qilish va uning asosiy mazmunini so‘zlab berish, yoki konspekt qilish bilan chegaralanib qolishi, yoxud uni mustaqil o‘qib, uning mazmunini gapirib berish shakllarida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi, mustaqil ishni tashkil qilganda albatta, talabalarning bu ishga sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur. Mustaqil ishning xajmi shunday aniqlanishi kerakki, talaba bu ishni real bajara oladigan bo‘lishi kerak.

Uchinchi, talabalarga mustaqil ishni vazifa sifatida topshirganda o‘qituvchi har bir mavzu bo‘yicha «qanday maqsad qo‘yiladi?» degan savol qo‘yib bu savolga javob berishi kerak. Aniqrog‘i har bir mavzuning oldiga qo‘yilgan maqsadni aniq belgilashi zarur.

To‘rtinchi, talabalarning mustaqil ishi ma’lum bir tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak. Mustaqil ish har bir talaba tomonidan mustaqil bajarilib, uning sifati o‘qituvchi tomonidan baholanishi zarur.

Beshinchi, talabalarning mustaqil ishi rejasi kafedra majlisida tasdiqlanib rejadagi talabalarning mustaqil ishi xaftalarga bo‘linib uning bajarilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishini uning natijalari kafedra majlisida muhokama qilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Oltinchi, mustaqil ishning talabalar bilimni oshirishda muhim o‘rin egallashini hisobga olgan holda, mustaqil ishi natijasi bo‘yicha olingan reyting ballari talabalarning umumiy reyting balliga qo‘shilishi kerak.

Yettinchi, talabalarning mustaqil ishi sifatida shunday ishlar tanlanishi kerakki, ularni bajarganda talaba u yoki bu ishni mavzusini chuqur o‘rganishga imkoniyat yaratish zarur. Talabalarga

mustaqil ish sifatida axborot texnologiyalari, jamiyatni axborotlashtirish, soxa korxonalarining ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish, avtomatlashgan sun'iy intellektli tizimlarni yaratish kabi muammolarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ayrim masalalarni model-algoritm-dastur tamoyilida yechimlarini izlashni tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir. O'qiladigan fanning mavzulari bo'yicha talabning mustaqil ishini tashkil qilishda fanning tarkibiy qismlarini mantiq tamoyillari asosida strukturalab birorta tanlangan mezonlar asosida strukturalangan modullarga ajratish lozim. Har bir modul bo'yicha ma'ruza, amaliy, laboratoriya va talabaga ajratiladigan mustaqil materiallarni tarkibini aniqlashtirib, adabiyotlar, internet resurslaridan foydalanishni rejasini tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Hozirgi zamonaviy o'qitish tendensiyasida juda katta e'tibor talabning o'qituvchi nazoratida mustaqil ishlarini samaradorligini, mahsuldorligini, ilmiy amaliy salohiyatini va boshqa shu kabi omillarini oshirishga qaratilgan. Yildan yilga mutaxassislik o'quv rejasidagi fanlarni o'qitishning tarkibiy qismida o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limga ajratilayotgan soatlar miqdori ayrim fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdorining 50-80% ni tashkil qilmoqda. Bu esa tabiiy, chunki hozirgiday axborot kommunikasiya texnologiyalarining bunday tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrida mustaqil ta'limni tashkil qilishga juda katta e'tibor qaratiladi.

E'tiborli tomoni shundagi, axborotli jamiyatning rivojlanishi oliy ta'lim muassasalari oldiga zamon talablariga mos keladigan kasbiy faoliyat mutaxassislarini tayyorlashda na faqat o'z mutaxassisligini "yaxshi biladigan, o'zlashtirgan" mutaxassisni emas balki, eng muhimi shundan iboratki, ilmiy salohiyatli "mutaqil fikr yuritadigan", o'zining kasbiy salohiyatini "baholay oladigan", "mustaqil tarzda maqsadga erishish" ko'nikmalariga ega bo'lgan, olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyat uchun qo'llashga yo'nalitira oladigan, faol, izchil "shakllangan" kompetentli mutaxassisni tayyorlashda e'tiborni mustaqil ta'limni faol tashkil qilishga qaratishni bosh mezon darajasiga olib chiqishni ko'ndalang qo'ymoqda. Bundan tashqari, zamonaviy sharoitlarda, kompyuter va telekommunikasiya sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha yondashuvlarda kardinal o'zgarishlar qilinmoqda. Bunday aqlli kompyuterlashgan telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning axborotlashgan tizimida talabning fanlar bo'yicha mustaqil ishi vaqt bo'yicha kechiktirilib talabning olgan bilimlarini tekshiradigan oddiy jarayon emas, balki real vaqt mobaynida uzliksiz tarzda talabning olgan bilimlarini monitoringgi bo'lib o'qituvchi bilan talaba orasidagi o'zaro faol aloqadorlikni ta'minlovchi jarayondir, bu esa axborot almashish va kommunikasiyalar uchun fazoviy (geografik, masofaviy, oliy ta'lim muassasasidan tashqarida) va vaqt chegaralarini (dars jadvalidan tashqari, xohlagan vaqtda) kengayishga olib kelmoqda.

**Metodika.** Bu muammoni samarali hal qilishga, tashkil qilishning turli jabhalarini tahlil qilishga, talabalar mustaqil ishlarini takomillashtirish, rivojlantirishning usullarini, yondoshuvlarini izlash bo'yicha juda ko'p ilmiy, ilmiy-metodik ishlar chop qilingan. Bularning barchasida, talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishda, uning faolligini oshirishga to'sqinlik qiladigan sabablarni, vositalarni aniqlashda va ularni bartaraf etishda, o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismlarini va undagi rolini aniqlashga e'tiborni qaratish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi paytda jamiyatni demokratizasiyalashtirish va gumanizasiyalashtirish, insoniyat huquqlarini va erkinligini kengayishi sharoitida, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan yosh avlodni

tarbiyalash juda muhimdir. Mustaqillik, inisiyativa, ijodkorlik, maqsadga intiluvchanlik – bu insonning mustaqil fikrini shakllantirish uchun, hozirda va kelajakda hayotiy muhim muammolar bo'yicha mustaqil yechimlar, qarorlar qabul qilishni takomillashtirish, rivojlantirish uchun zarur hisoblangan zamonaviy inson shaxsining muhim sifatlari hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ijodiy faollik va mustaqillik zamonaviy mutaxassis uchun xarakterli hisoblanadi [3,4].

Talabani mustaqil ishini bilimlarni o'zlashtirishning oddiy biror uslubi deb qaramaslik kerak, aksincha, oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy prinsiplaridan bittasi deb hisoblamoq darkor. Mustaqil ta'lim yagona o'quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u o'quv jarayoni tomonidan tashkil qilinadi, maqsadli yo'naltiriladi, reglamentlar qo'yiladi va nazorat qilinadi. Shu boisdan ham talabani mustaqil ishini tashkil qilish, ayniqsa, axborot kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanib borayotgan sharoitida, ta'lim sifatini oshirishning birdan bir prioritetli va samarali yo'nalishlardan bittasidir.

Ma'lumki faol bilim olish va ilmiy izlanish faoliyati mustaqil izlanishlarning barcha turlaridan unumli foydalanishni talab qiladi. Talabani mustaqil ishi o'quv jarayonining barcha shakllarida namoyon bo'lmog'i zarur. Talabani mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Tabiiyki, talabani mustaqil ishiga rahbarlik qilish va tashkil qilishning asosiy prinsiplarini ko'rib chiqqanda juda katta e'tiborni talabada o'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashning mustahkam ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish darkor. Internet muhitida berilgan topshiriq bo'yicha kerakli axborotni izlash talabada axborotni zaruriylikini anglab yetish, tahlil qilish, undan kerakli ma'lumotlarni sintez qilish va natijaviy axborotlarni izlanishlar olib borish uchun qo'llay bilish ko'nikmalar, hamda fanlar bo'yicha topshiriqlarni, o'quv-ilmiy izlanishlarni, ilmiy izlanishlarni mustaqil tarzda olib borish va nazorat qilish bo'yicha tajribalar, metodikalar shakllanadi. Bilim olishda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllanishi talabalarda o'zining bilimini uzliksiz tarzda, faol, tizimli tarzda to'ldirib borish, takomillashtirishning psixologik ustqurmasini ishlab chiqaradi va o'zining o'quv va keyinchalik kasbiy faoliyatida o'zini-o'zi tashkil qilishning zaruriy shartlarini hosil qiladi. Demak, talabani bilim olishiga shaxsiy ma'no bermak zarur, bilim olishning ichki motivasiyasini kuchaytirish, o'zini-o'zi tashkil qilish va o'zini-o'zi o'qitish ko'nikmasini rivojlantirish hisobiga talabani ijodiy potensialini rag'batlantirib (moddiy va ma'naviy) bormoq zarur. Ta'lim olishning barcha faoliyat turlari faol mustaqil izlanishni talab qiladi. Talabani mustaqil bilim olishini ma'ruza mashg'ulotlariga nisbatan qarama-qarshi qilib qo'yish mumkin emas, balki ma'ruzadan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladigan muhim instrument deb qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu boisdan ham mustaqil ish o'quv jarayonining barcha shakllarida bo'lishi zarur.

Masalan, barcha fanlardan talabani bilimni aniqlash bo'yicha turli ko'rinishdagi bosqichma-bosqich nazoratlar qo'llaniladi. Bular asosan boshlang'ich bilimni aniqlash, joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat va tajriba-amaliy mashg'ulotlardagi tezkor so'rovlar, ma'ruza materiallari bo'yicha semestr davomida 2-3 marta nazariy so'rovlar, mustaqil ishlash topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Mustaqil ta'lim olish jarayonini talaba o'zida kasbiy faoliyatning, chunonchi, masalani matematik rasmiylashtirish (modellash) algoritmlash va dasturlashtirish bo'yicha puxta, chuqur bilimning shakllanishidagi muhim elementlardan biri deb tushunmog'i zarur.

Aytaylik, Dasturlash fani bo'yicha talabani turli ko'rinishlardagi mustaqil ishini tashkil qilish uchun fanni tarkibini mantiqiy tugallangan o'quv elementlari ko'rinishida, ya'ni mantiqiy tarkibiy elementlarning daraxt ko'rinishidagi strukturasi yaratmoq kerak. Fanning daraxt ko'rinishidagi

mantiqli struktura sxemasidan foydalanish talabani mustaqil ishini semestr mobaynida konkret rejalashtirilgan grafik asosida olib borishga imkoniyat yaratadi [5-9].

Fanning tarkibiy qismlari, strukturasi “masala” ko‘rinishida xarakterlanadigan rivojlantiruvchi ta’limda o‘quv materialining mazmuni talabalar oldida masalalar zanjiri ko‘rinishida gavdalanadi. Fikrlashning muammoli xarakterga ega ekanligini hisobga olgan holda, aniq mavzu yoki bo‘limning mazmunini quyidagicha qurish maqsadga muvofiqdir, ya’ni, “bilish masalalarining mantiqiy ketma-ketligi ko‘rinishida, o‘quv jarayoni esa - o‘quv vaziyatlari zanjiri ko‘rinishida, uning bilish yadrosi hisoblanadi, mazmuni esa - o‘qitish usullari va bilim olishning har xil vositalarini qo‘llagan holda masalalarni yechish bo‘yicha talabalarning birgalikdagi, hamjihatlikdagi ishidir” [7,8,9].

**Xulosa.** Talabalarning mustaqil ishi - bu o‘qituvchining uslubiy va ilmiy rahbarligi ostida amalga oshiriladigan, bilim faolligini rivojlantirish va namoyon etishga qaratilgan o‘quv, ilmiy, kasbiy faoliyat doirasida talabani rejalashtirilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyati, hamda bo‘lajak mutaxassisning umummadaniy, umumkasbiy, kasbiy va maxsus kompetentsiyalarini shakllantirishdir. Natijada, talabada, konkret masalani turli sonli miqdorlarda, va turli o‘lchamlarda, samarali metodlar va uslublarni qo‘llab muvaffaqiyatli yechish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yerda turdosh fanlarga doir masalalarni yechishda albatta axborot texnologiyalarining modellashtirish-algoritmizatsiya-dasturlash tamoyillari mazkur fanlar bilan birgalikda, uzviylikda olib boriladi, ular bir-birini kerakli axborotlar bilan to‘ldiradi, qo‘llab quvvatlaydi. Shu boisdan ham, oliy ta’lim muassasasida talabani mustaqil ishini tashkil qilishni o‘qituvchi rahbarligida umumiy va kasbiy ta’lim bilimlarini olishga yo‘naltirilgan o‘quv-uslubiy-ma’naviy faoliyatning bir turi deb qarash maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24-январдаги Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси.
2. Латышева Л.П., Скорнякова А. Ю., Черемных Е. А. Модель организации внеаудиторной самостоятельной работы студентов по математике// Педагогическое образование в России. 2014. № 12. – с. 110-116.
3. Асламова Т.В. Организация самостоятельной работы студентов как фактор формирования профессионально значимых компетенций// МГТУ, М.: 2005.
4. Жуйкова О. В. Организация самостоятельной работы студентов технического вуза при изучении графических дисциплин// Ижевск, 2013. - №2. – С. 288-293.
5. Положение об организации самостоятельной работы студентов в Тамбовском государственном техническом университете. – Тамбов, 2011.
6. Zakirova, F.M., Saidova, F. and Zakirova, M. 2018. Blended learning for the development of academic staff creativity: The experience of advanced training of pedagogical staff in the Republic of Uzbekistan. In 2nd International Conference on Digital Technology in Education, ICDTE 2018. Thailand. 143696.
7. Yusupov F., Shamuratova I., Yusupov D., Khudayberganov T. “Data structure and algorithms” based on structuration and integration of the discipline// Information science and communications technologies 4-6 November 2019, TUIT Campus, Local Hotels, Tashkent Uzbekistan.
8. D.Yusupov. A.Ashirova. F.Yusupov. B.Bekchanov “Improving the effectiveness of lectures by using the methods structuring the composition of the programming discipline”// European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 7, Pages 1093-1108.
9. Юсупов Ф., Хаджиева И.А. О личностно-ориентированной модели компьютерного обучения гуманитарных дисциплин// Молодой учёный. – 2014, №6 (65). – с. 765-767.



## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>ATAULLAYEV ZOKIR MAXSUDOVICH</b> Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini xalqaro baholash tamoillari asosida takomillashtirish	4
<b>NAZARQULOVA GULNORA ABLAKULOVNA</b> Bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatga tayyorlash	11
<b>ISMAILOVA OYGUL SABIRBAEVNA, YULDASHOVA SANAMJON BOBOMUROD QIZI</b> Genetika xususiyatlari va bola psixologiyasining o'zaro bog'liqligi: maktabgacha ta'lim misolida	16
<b>QADAMBOYEVA HILOLA UMID QIZI</b> Milliylik asosida bo'lajak o'qituvchilarning vatanga muhabbat tuyg'usini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	20
<b>MATKARIMOV IKROM MUXTAROVICH</b> Mahalla raislarining ma'naviy-ahloqiy sifatlarini tizimli ta'lim jarayonida rivojlantirishning xususiyatlari	24
<b>SARIYEVA E'TIBOR MATCHANBOYEVNA</b> Tyutorlik faoliyatida madaniy turizm - zamonaviy ta'limda yangicha yondashuvlar	30
<b>ABDULLAYEV JONIBEK SHOKIROVICH, SOBIROV USMON MATYAQUBOVICH, SADIKOVA SEVARA</b> Rekkurent formulalar yordamida hisoblanadigan yuqori tartibli determinantlar va integrallar haqida	36
<b>JABBARGANOV MIRZOBEK KOMILJON O'G'LI</b> Improving the integration of education and the economy	42
<b>KUTLIMURATOV SARDORBЕК RUSTAMOVICH</b> XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik milliy harakati vujudga kelishining tarixiy bosqichlari	50
<b>KARIMOV DONIYOR KOMILOVICH</b> Biatlonchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan maxsus kompleks mashqlari va haftalik mashg'ulot yuklamalarini ishlab chiqish	57
<b>NABIYEV ELYOR BAXTIYAROVICH</b> Maktabgacha ta'lim tizimida xorij tajribasi	62
<b>RAXIMOVA SULURXON DJUMANIYOZOVNA</b> Frazeologizm, maqol va matallarning umumiy o'xshashliklari va farqlari	65
<b>ATAJANOV ADILBEK YULDASHEVICH</b> OTMlarining pedagog xodimlarini jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari	69
<b>PANAYEVA MALOXAT MUMINOVNA</b> Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'atini rivojlanishi tarixi	73
<b>SULTONOVA ZEBOXON GAYRAT QIZI</b> Bo'lajak pedagoglarda ta'lim jarayonida innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish	78
<b>MADAMINOVA SHAXODAT SHOMUROTOVNA</b> OTMlari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jadid maktablari tajribasidan foydalanish	83

<b>ИСМАГИЛОВА МАДИНА ФАРИДОВНА</b> История развития категории числа русского языка	88
<b>YUSUPOV DAVRONBEK FIRNAFASOVICH</b> Talabaning mustaqil ishini tizimli rejalashtirish va tashkil qilish ta'lim sifatini oshirish uslubi sifatida	95
<b>QURBONOVA BAXTIXON QO'CHQARBAYEVNA</b> Bo'lajak pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini metodik rivojlantirish	100
<b>ATAYEVA GULI SHUXRATOVNA</b> Talabalar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	103
<b>MATYOQUBOV H.SH., SALAYEVA H.SH., QURONBOYEVA N.I., SABIROV R.Y.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Arximed" kuchi mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish	108
<b>MATYOQUBOV H.SH., QURONBOYEVA N.I., SALAYEVA H.SH., SABIROV R.Y.</b> Erkin tushish tezlanishi mavzusini o'quvchilarga oddiy va samarali o'rgatish usullari	113
<b>XUDAYBERGANOV SHUHRAT SHAVKAT O'G'LI, MAXMUDOVA KUMUSHOY JAMOL QIZI</b> Katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o'rganish pedagogik tizimlarini takomillashtirish	118
<b>YAQUBOV ARSLON MAHMUDOVICH</b> Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning nazariy-amaliy va pedagogik asoslari	125
<b>ABDULLAYEVA BIBIMARYAM NARIMON QIZI</b> Umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari	132
<b>ALLAYAROVA NARGIZA NARIMANOVNA, NAZAROVA MATLUBA FERUZBEK QIZI</b> Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining nazariy asoslari	137
<b>BEKCHANOVA FERUZA MARIMBOY QIZI</b> Talabalarda 4K modeli asosida ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish	144
<b>BEKMANOVA HURSHIDA SHOKIRJONOVNA</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish	148
<b>YAKUBOVA GULNOZ MADRIMBAYEVNA</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning morfofunktsion xususiyatlari	156
<b>KARIMOVA NILUFAR BOLTABOYEVNA</b> Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari	161
<b>D.K. KARIMOV, S.J.MURATOV, A.O'.MATNAZAROV, U.A.BAXRAMOV, X.M.KURBANBOYEV, M.P.MADAMINOV, J.D.YO'LDASHOV, O.Q.KARIMBOYEV</b> Maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazish uslublari	168
<b>TAYIROV HAMZA O'KTAMOVICH</b> Talabalarining bilim, ko'nikmalarini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	175